POETIK OMONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Feruz Umarqulovich RAJABOV
Filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori
Qarshi Muxandislik iqtisodiyot instituti Nuriston akademik litseyi
Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada poetik omonimlar va ularning yuzaga kelish sabablari, tasnifi va talqini haqida fikr yuritilgan va asoslangan. Poetik omonimlarning badiiy matndagi vazifalari dalillangan. Lingvopoetik vosita sifatida omonimlar tahlilga tortilgan.

Tayanch so‘zlar: lingvopoetika, omonimlar, poetik omonimlar, badiiy matn, bayt, tuyuq.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОЭТИЧЕСКИХ ОМОНИМОВ

Феруз Умаркулович РАЖАБОВ
Доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Нуристанский академический лицей Каршинского инженерно-экономического института
Карши, Узбекистан

Аннотация

В данной статье на основе источников рассматриваются поэтические омонимы и их причины, классификация и толкование. Определены функции поэтических омонимов в художественном тексте. Анализируются омонимы как лингвопоэтический инструмент.

Ключевые слова: лингвопоэтика, омонимы, поэтические омонимы, художественный текст, строфа, туюк.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida «lingvopoetika» deb ataluvchi matn lingvistikasining mustaqil sohasi jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Lingvopoetik yondashuvning takomillashuvi badiiy matnni tashkil qiluvchi til birliklarini qaytadan ko‘zdan kechirish imkonini o‘rtaga chiqardi. Chunki har qanday til birligi badiiy matnda muallifning badiiy niyatiga xizmat qiluvchi bebaho vositaga aylanishi hamda tamoman o‘ziga xos poetik qonuniyatlarni inkishof qilishi mumkin [1; 23]. Xususan, badiiy matnda qo‘llangan omonimik birliklarni o‘rganish lingvopoetika sohasining dolzarb masalasidir.

O‘zbek badiiy matnida qo‘llangan omonimlarning shakllanish tarixi, lingvopoetik xususiyatlari, o‘zbek lingvomadaniyatida tutgan o‘rnini o‘rganishni va tahlil qilishni mumtoz asarlardan boshlash zarur. Ushbu maqolamizda mumtoz

lirik asarlariga kiruvchi *g‘azal, ruboiy, qit’a, tuyuq, masnaviy*larda qo‘llangan poetik omonimlarni tahlilga tortildi.

O‘zbek tilida omonimlar she’riy asarlarda *tajnis, tag‘yir, ittifoq, iyhom, istiora, lutf, ibhom, tasbe, tasdir* kabi badiiy san’atlar; *xushohanglik, alliteratsiya* kabi uslubiy vositalarni yuzaga keltirishi aniqlandi. Bunday vazifada keluvchi omonimlarni poetik omonimlar sifatida tahlil qilish o‘rinlidir. Chunki badiiy matnda ijodkorning ma’lum bir maqsadi uchun yoki badiiylikni oshirish uchun qo‘llangan omonimlarni sof lingvistik hodisa sifatida tahlil qilish qiyin. Ularni lingvopoetik vosita sifatida o‘rganish poetik omonimlarning nutqiy imkoniyatlarini bilishga sabab bo‘ladi.

Tajnis badiiy san’atlardan biri bo‘lib, lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra *hamjins, jinsdosh* ma’nolarini anglatadi. Tajnis shaklan bir xil, biroq boshqa-boshqa ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar (omonim)ni qo‘llash orqali nozik so‘z o‘yinlarni ishlatishga imkon beradi. Tajnis, asosan, nazmda, qisman nasrda ham qo‘llanadi.

Tajnis haqida poetikaga doir adabiyotlarda juda ko‘p fikrlar bayon qilingan, lekin ularda mazkur san’at turlicha tasnif va tavsif etilgan. «Badoyi us-sanoyi»da ham tajnis turlari ikki katta guruhga bo‘linadi. Bular: *tajnisi lafziy* va *tajnisi g‘ayri lafziy*lardan iborat.

Tajnis san’ati ustidagi kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek she’riyatida bu san’atning yetti turi qo‘llanilgan. Biz bu yetti turni o‘z xarakteri va xususiyatlariga qarab, avvalo, ikki katta guruhga ajratib olamiz. Birinchi guruh - *tajnisi tom* yoki *mutlaq*, ikkinchi guruh - *tajnisi noqis* (nuqsonli). Mumtoz adabiyotimizda tajnisning quyidagilarida qo‘llanilgan omonim birliklarni *poetik omonimlar* sifatida tahlil qilish mumkin:

1. *Tajnisi tom yoki mutlaq tajnis*. To‘liq shakldosh, ammo boshqa-boshqa ma’no anglatuvchi so‘zlar vositasida yuzaga kelgan jinos *tajnisi tom* deb yuritiladi. Masalan:

*Ey ko‘ngul, bu kecha ul oy sori **bor**,*
*Oh o‘tin yorutmakim, ag‘yori **bor**.*
Tuxmi mehr ektim muhabbat bog‘ida,

Dard barg ochti-yu g‘am kelturdi ***bor*** (Yusuf Amiriy).

Bu tuyuqning birinchi misrasidagi *bor* - fe’l, ikkinchi misradagi *bor* - *mavjud* ma’nosini, to‘rtinchi misrasidagi *bo*r so‘zi esa *meva* ma’nolarini anglatadi. Yoki Alisher Navoiyning qit‘asidan keltirilgan quyidagi baytda ham tajnisi tom qo‘llanilgan:

Anda har ***bayt*** *necha ma’ni ila,*

Bayt *emaskim, g‘arib xonadurur.*

Birinchi misradagi *bayt* so‘zi *ikki misra she’r*ni anglatsa, ikkinchisi - *uy* ma’nosidadir. Xullas, tajnisi tom shakldosh so‘zlarining yaxlitligi va ma’nolarining o‘zgachaligi bilan xarakterlanadi.

2. *Tajnisi noqis (nuqsonli tajnis).* Bu guruhdagi tajnis turlari o‘z navbatida bir necha shakllarga ajraladi. 1) *Tajnisi murakkab*. Murakkab tajnis o‘z tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: a) *Jinosi mafruq* (ajratilgan tajnis). Bunda tajnis uzvlaridan biri yozuvda ajralib tursa ham, biroq quloqqa yaxlit bo‘lib eshitiladi. Masalan, Alisher Navoiyning quyidagi tuyug‘ida *jinosi mafruq* qo‘llanilgan.

La’lidin jonimga o‘tlar ***yoqilur****,*

Koshi qaddimni jafodin ***yo qilur****,*

Men vafosi, va’dasidin shodmen,

Ul vafo, bilmonki, qilmas ***yo qilur****.*

Tajnisning bu turi boshqa o‘zbek shoirlari ijodida ham ko‘p uchraydi.

Ahli she’r balki kitobim nazmi ishq ***deb ochadir****,*

Yo‘q, kitobim sevgining devoniga ***debochadir*** *(E. Vohidov).*

b) *Tajnisi mulaffaq*. Bu turda tajnis uzvlarining hammasi murakkab bo‘ladi. Masalan:

O‘tkali ul sarvi ***gulrux soridin****,*

Yo‘q xabar ul sarvi ***gulruxsoridin****,*

Hajridin bog‘ ichra berur yodima

Qaddidin sarvu ***gul ruxsoridin*** *(Navoiy).*

3. *Tajnisi xat.* Yozuvda bir xil, lekin talaffuzda farq qiladigan so‘zlar vositasida qo‘llanilgan jinos *tajnisi xat* deyiladi. Tajnisning bu turi tajnisi

muharrifdan shu bilan farq qiladi. Tajnisi muharrifda ko‘proq ichki o‘zgarish, sinish (fleksiya)ga doir so‘zlar qo‘llansa, tajnisi xatda asosan omograflar qo‘llanadi. Masalan:

*Chun Husayniy yuz **ayog‘** xunob ko‘zidin to‘kar,*

*Sen dag‘i yetkur **ayog‘** bu chashmi giryon ustina.*

4. *Tajnisi lafz*. Talaffuzda unchalik farqlanmay, yozuvda farqlanuvchi jinos *tajnisi lafz* deyiladi. Bu tur jinos asosan omonimlar orqaligina yaratiladi. Masalan:

*Sen chu ursang fano yo‘lida **alam**,*

*Yusha mumkin emas yetishmak **alam**. (Navoiy)*

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, tajnis she’riyatimizning badiiyligini ta’minlovchi asosiy san‘atlardan biri hisoblanadi. Shu kunlarda ham mumtoz she’riyatimizning badiiy an’analaridan foydalanib yaratilayotgan tajnisli she’rlar oz emas.

Tajnis san’ati tilimizning rivojlanish qonuniyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda taraqqiy etdi. Bundan keyin ham bu san’atning ajoyib namunalari yaratilishi mumkin. Ularni tadqiq qilish va adabiy jarayon bilan bog‘liq holda izohlash adabiyotshunosligimizning muhim vazifasi hisoblanadi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, tajnis qo‘llash shoirning iqtidoriga, ona tili imkoniyatlarini ilg‘ab olishiga va qolaversa, badiiy maqsadiga bog‘liqdir.

Tajnis san’ati dastlab xalq og‘zaki ijodida yuzaga kelib, keyinchalik yozma adabiyotda qo‘llanila boshlandi. Hatto ayrim poetik janrlar faqat tajnis qo‘llanishi orqali yaratildi. Masalan, tuyuq janri, birinchidan, tajnis qo‘llanishi, ikkinchidan, maxsus vaznda yozilishi orqaligina yuzaga keladi.

Tuyuq – turkiy poeziya uchun xarakterli bo‘lgan lirik janr. Navoiy “Mezon ul-avzon”da tuyuq haqida alohida ma’lumot bergan: “*Yana turk ulusi, bataxsis chig‘atoy xalqi aro shoye’ avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bilan yasab, majolisda ayturlar. Birisi tuyug‘dirkim, ikki baytka mukarrardur va sa’y qilurlarkim, tajnis aytilgay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur...* ”

Navoiy mana shu janrga ham (imkoniyat doirasida) ijtimoiy mazmun berishga harakat qilgan:

*Charx tortib xanjari xijrop **bu tun**,*

*Kuymadi bir zarra bagrimni **butun**.*

Tunga borib bizni beuol aylading;

*Ne balolig tun emish, yo Rab, **bu tun**!*

Ushbu g‘azalda *balosi* so‘zi qofiya bo‘lib kelgan. Bu poetik omonim hisoblanib, shakldosh birlik ikki xil ma’noda kelyapti. Birinchi ma’nosi *balo* o‘z ma’nosida, ikkinchisi turkning *bolasi* ma’nosida kelgan:

Kim ermas ul oy mudtalosi,

*Yolg‘iz menga yo‘q aning **balosi**...*

Kim ko‘rsa aning yuzini aytur:

*Ne turfa erur bu turk **balosi.***

Tag‘yir (ar. *o‘zgarish, o‘zgartirmoq*) – she’r tarkibidagi biror so‘z shaklini vazn yoki qofiya talabi bilan biroz o‘zgartirib ishlatish (yozuvda va talaffuzda) san’ati, lafziy san’atlar jumlasidan. Bu hodisa ko‘p hollarda qofiya talabi bilan yuzaga keladi. *Tag‘yir* san’ati faqat *qofiya* va *vazn* taqozosi bilan emas, balki boshqa biror san’atni yuzaga keltirish maqsadida ham qo‘llanishi mumkin. Mana bu baytda “*bolaga*” so‘zining o‘zgartirilishi *tajnis* (ham bola, ham balo) hosil qilgan:

*Ul **balo**ga o‘rganibmen, o‘ylaki, jonim chiqar,*

*Ko‘rmasam boshimda bir soat, meni shaydo **balo*** [3; 249].

Ittifoq (o‘zaro muvofiqlashish) – ma’naviy san’atlardan bo‘lib, fors-tojik va o‘zbek mumtoz she’riyatida uning ishlatilishi uzoq davrlardan buyon mavjud san’at. Doiy Javodning *“Zeboihoi suxan yo ilmi bade’ dar zaboni forsiy”* asarida keltirilgan ta’rifiga ko‘ra *ittifoq* san’atining mohiyati shunday: shoir she’rda biror *nom, ism* yoki *taxallusi*ni nihoyatda chiroyli ko‘rinishda shunday o‘rinli ishlatadiki, o‘quvchi xayoliga bir paytning o‘zida ana shu so‘zning ham lug‘aviy, ham istilohiy ma’nosi keladi. Misollar:

*Erurman ishq mulkining **Amiri**,*

Junun avboshi darbonimga maxsus (Yusuf Amiriy).

Garchi yo‘qtur kurk ichinda sen bikin, sultan begim,
Barru bahr ichra meningtek bir ***Gado*** *bo‘lg‘aymu hech* (Gadoiy).

Necha muddatdan beri ***Furqat****da solgan zormen,*
Ne saodatdur surarga holi zorim kelsalar (Furqat).

Yuqoridagi baytlarda *amir*, *gado* va *furqat* so‘zlari ham lug‘aviy, ham istilohiy ma’noda ishlatilgan. Biroq mazkur baytlarda o‘quvchi ko‘z oldiga dastlab ana shu so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi keladi. Agarda bosh harf bilan yozilmasa, ularning istilohiy vazifasini anglab olish qiyin. Demak, *ittifoq* san’ati ishlatilgan baytlarda so‘zning lug‘aviy ma’nosi birinchi o‘ringa chiqib qoladi. Bu ham poetik omonimga misol bo‘ladi.

*Ittifoq*ning muvaffaqiyat bilan qo‘llanishi ma’lum darajada shoirning mahoratiga bog‘liq bo‘lsa-da, biroq bu san’atning ishlatilishida birmuncha chegaralangan jihatlar yo‘q emas. Bu, avvalo, shoir taxallusining *ittifoq* yaratish uchun qanchalik qulay bo‘lishi bilan bog‘langan. Chunki shunday nom va taxalluslar ham borki, she’rda ularning lug‘aviy ma’nosidan foydalanish nihoyatda mushkul (masalan, Xorazmiy, Atoyi, Bobur kabi). Shuning uchun she’riyatimiz tarixida juda ko‘p ishlatilgan bu san’at muayyan shoirlar ijodidagina o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan.

Bobur ruboiyida *Komron* real antroponimi orqali so‘z o‘yini qilgan. Bu ruboiyda Komron *Bobur o‘g‘li* va uning forscha *baxtli; hayotdan zavqlanuvchi* ma’nosida qo‘llangan. Natijada *ittifoq san’ati* (Atoqli otni bildiruvchi so‘zni turdosh ot sifatida she’rga kirib, so‘z san’atini yasash) orqali lingvopoetik xususiyat namoyon bo‘lgan. Bu misralarda ham *ittifoq, lutf* san’atlarini ko‘rishimixz mumkin:

Davlat bila shodu shodmon bo‘lg‘oysen,
Shavkat bila mashhuri jahon bo‘lg‘oysen.
Ko‘nglungdagidek dahr aro kom surub
Bu dahr borincha ***Komron*** *bo‘lg‘oysen.*

Zamonaviy she’riyatda ham ittifoq san’atining yuksak namunalari mavjud. Quyidagi baytlarda *“sobir”* (sabrli) va *“erkin”* so‘zlarining lug‘aviy ma’nosi go‘zal ittifoq yaratish uchun imkoniyat yaratgan:

*Vasl ayyomi kelib yetguncha **Sobir** bo‘lmasang,*

Chin muhabbatning samgshiy sharti bekor ulgudek (Sobir Abdulla).

*Yangrasin **Erkin** so‘zing, aslo tiling lol ulmasin,*

Dast ko‘tar davron yukini, etma sadding yo salam... (Erkin Vohidov) [3; 55-57].

Iyhom (ar. shubhaga solish, adashtirish) - ma’naviy san’atlar ichida eng murakkablaridan biri bo‘lib, mumtoz she’riyatimizning mashhur namoyandalari bu san’atdan mahorat bilan foydalanganlar. “Al-mu’jam”da bu san’at shunday izohlanadi: *«Iyhom – shubhaga solish san’atining mohiyati shundan iboratki, bunda ikki ma’noli so‘z ishlatadilar: birinchi ma’nosi yaqin, yuzaki, ikkinchisi esa uzoq. Bu so‘z shunday ishlatiladiki, eshituvchi dastavval birinchi ma’noni qabul qiladi, vaholanki, so‘zlovchining asosiy maqsadi so‘zning uzoq, ichki ma’nosidir”* (“Al-mu’jam”, Tehron nashri, 326-bet). Iyhom shubhaga tushishdir. Endi misollarga murojaat qilaylik:

Labing bag‘rimni qon qildi, ko‘zumdin qon ravon qildi;

*Nega holim yamon qildi, men ondin bir **so‘rorim** bor* (Bobur).

Baytning ikkinchi misrasida *iyhom* san’ati mavjud. O‘quvchi dastlab misraning mazmunini *“Nega holim yomon qildi, Men undan bir so‘ramoqchiman”* tarzida tushunadi.

Agarda gai ma’shuqaning labi ustida borayotganligini e’tiborga olsak, shoirning maqsadi boshqacha bo‘lganligi va misraning mazmuni ham chuqurroq ekanligi ma’lum bo‘ladi:

“So‘rorim bor”, yuzaki qaraganda “so‘ramoqchiman” tarzida tushunilsa-da, shoirning maqsadi uning ikkinchi ma’nosi bilan, ya’ni “so‘rmoq” (bo‘sa ma’nosida) bilan bog‘langan. Boburning mana bu baytida ham iyhom *“so‘rmoq”* so‘zi orqali hosil qilingan:

***So‘rub** ul oy labidin, og‘zining ramzini anglodim;*

Bir og‘iz so‘z bila, ko‘rung, ki muncha xurdadon bo‘ldim.

Quyidagi baytlarda ham iyhom san’ati mavjud:

O‘tti xo‘blar oy kabi, yo‘qtur aroda ul quyosh;

Vohki, ul badmehrni ko‘rmon, o‘todur ***mohlar****.*

Bu baytdagi *“mohlar”* so‘zi, bir tomondan, oylar (vaqt) ma’nosini anglatsa, ikkinchi tomondan, oy kabi go‘zallar (oylar) ma’nosini bildiradi. Shoirning maqsadi ham bu so‘zning ikkinchi ma’nosi bilan bog‘liq: u oy kabi go‘zallar o‘tmoqda, ammo ular orasida quyosh yuzli badmehr go‘zalimni ko‘rmayman, demoqchi.

Ey gul, ne uchun qoshingda men xor o‘ldum,

Yuz mehnatu anduh bila yor o‘ldum...

Birinchi misradagi *«xor»*ning birinchi ma’nosi *«xor-u zor bo‘lish»*, ikkinchi ma’nosi esa *tikan* (tojikcha «xor»). Agar ma’shuqa gulga o‘xshatilayotganligi nazarda tutilsa, so‘zning zamirida *tikan* ma’nosi ham mavjudligi anglashiladi.

Mazkur misollar asosida quyidagicha xulosaga kelish mumkin: shoir ikki ma’noli so‘zni she’rda (nasrda ham bo‘lishi mumkin) shunday mahorat bilan ishlatadiki, natijada o‘sha so‘zni har ikki ma’nosida ham tushunish mumkin. Biroq ma’nolarning biri oshkora va ikkinchisi yashirin ifodalanadi. Shoirning maqsadi esa odatda ana shu ikkinchi yashirin ma’noni izhor qilishdan iborat bo‘ladi. Iyhomning ana shunday xususiyatlari ijodkorga o‘zining muhim fikrlarini pardalagan holda bayon qilish uchun imkoniyat tug‘diradi. Binobarin, anchagina murakkab bo‘lgan bu san’atni ishlata bilish ham shoirdan katta malaka va yuksak mahorat talab qiladi [2; 58]. Bunday omonim so‘z va so‘zshakllarni poetik omonim deyish mumkin.

Baytning turli joyida (sadr, aruz, ibtido, ajuz va xashvda) ***radd*** san’atini hosil qilgan so‘zlar shaklan va mazmunan bir xil bo‘ladi, ya’ni bir so‘z ikkinchi o‘rinda ham o‘zining asl ma’nosida ishlatiladi. Biroq u ikki o‘rinda ikki xil maqsad uchun xizmat qilishi yoki turli ma’no tovlanishlarini yuzaga keltirishi mumkin. So‘zlarning shakli bir xil, lekin ma’nolari boshqa-boshqa bo‘ladi, ya’ni tajnisi tom (omonim) ishlatiladi:

*Oshiq bo‘lmasa ushbu yetti qat **yer**,*

*Nedin muncha xaloyiq zaxmina **yer** (Qutb Xorazmiy).*

*Ayo sarvi sihi bo‘yluq, beli **qil**,*

*O‘ladurmen firoqingda, rahm **qil** (Xorazmiy).*

So‘zlarning shakliy o‘xshashligi tasavvurda bo‘lib, ular tovush va harflar jihatidan teng bo‘lsa ham, talaffuz va imloda bir-biridan tafovut qiladi yoxud ma’no jihatidan ham bir-biridan uzoq bo‘ladi. Bunday so‘zlarning biri murakkab tajnis (tarkibli omonim) hisoblanadi:

*Alishe’r, balki kitobim nazmi ishq **deb ochadur**,*

*Yo‘q, kitobim sevgining devoniga **debochadur** (Erkin Vohidov).*

Baytning muayyan *o‘*rinlarida kelgan ikki so‘z shakl jihatidan o‘xshash bo‘lsa ham, ular bir o‘zakdan emas, shuningdek, ma’nolari ham yaqin emas:

*Mushbbattin tugar ming turli **asror**,*

*Kungul **asror**ini jon birla **asror**.*

Dastlabki ikkita «asror» «sir»ning ko‘pligi bo‘lib, baytning oxiridagisi *asramoq* fe’lidan hosil bo‘lgan. ***Radd*** san’atini hosil etuvchi iyhom san’ati uchun ishlatilishi mumkin. Bu holat Radd san’ati uchun vosita bo‘lgan ba’zi bir so‘z va so’z shakllarining poetik omonim bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyotimizning lirik janrlarida qo‘llanilgan poetik omonimlar kitobxonlarga turli badiiy va estetik zavq berish yoki qaysidir fakt bilan bog‘liq voqeani jonlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Andaniyazova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi: Fil. fanlari bo’yicha falsafa doktori (Phd) diss. avtoref. –Toshkent, 2017. – 25 b.
2. Husayniy Atoulloh. Badoyi us-sanoyi (aruz vazni va badiiy vositalar haqida). – Toshkent, 1981. – 400 b.
3. Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 320 b.